
“Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari mahallalarda ko‘tarinkilik bilan bo‘lib o‘tmoqda

2023 yil 22 dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari bugungi kunda xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, madaniy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yanada jonlantirish yuzasidan muhim vazifalarni belgilab bergandi.

Toshloq tumanida ham aholi o‘rtasida ma’naviy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida "Nayman" MFYda “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

"Nayman" madaniyat markazida bo‘lib o‘tgan tadbirda tuman hokimligi, mahalla faollari hamda ziyolilar ishtirok etdi. Tadbirda so‘z olganlar “Nuroni” jamg‘armasi viloyat bo‘limi raisi Z.Rahmonov, viloyat hokimi maslahatchisi M.Yo‘ldoshev, Farg‘ona politexnika instituti 1-prorektori Sh.Dehqonov, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi Sh.Jumanov hamda tuman hokimi o‘rinbosari E.Madaminovlar mamlakatimizda inson qadri uchun tamoyili asosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, erishilayotgan yutuqlar borasida so‘z yuritdilar.

Tadbir davomida madaniy dastur namoyish etildi, mahallalar ahlining fikr-mulohazalari tinglandi.

2024-01-04 14:08:10